



# Journal of Natural Sciences

**№2**  
**(2021)**

<http://www.natsciences.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>4. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>6. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>7. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика</b> институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчиб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING  
ROLI

S.B.Karimova, J.Q.Isomiddinov

Jizzax Politexnika instituti

D.K.Muradova, M.O'.Kamolova

Jizzax davlat pedagogika institute

**Annotation:** In the state rassmatrivayutsya the concept of innovation, the application of innovative pedagogical technologies in the system of education, their proper use and effectiveness.

**Аннотация:** В статье рассматриваются понятие инновации, применение инновационных педагогических технологий в системе образования, их правильное использование и их эффективность.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Innovatsiya haqida tushuncha talim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishi ulardan to'g'ri foydalanish hamda ularning samarasi haqidagi masalalar ko'rib chiqilgan.

**Keywords:** innovations, innovative technologies, innovative activities, pedagogical activities, pedagogical technologies, education system, education

**Ключевые слова:** инновации, инновационные технологии, инновационная деятельность, педагогическая деятельность, педагогические технологии, система образования, образование

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsiyon texnologiya, Innovatsion faoliyat pedagogik faoliyat, pedagogik texnologiya, ta'lim tizimi, ta'lim

Mamlakatimizni rivojlanishi boshqarish uslublaridan biri bo'lgan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Innovatsiyalar har bir yo'nalish rivojlanishga yuqori darajada o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ta'lim sohasining bugungi kun talabi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirishdir.

Innovatsiya inglizcha so'z bo'lib- “innovatsion” yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. V.A.Slasyoning fikricha, innovatsiya maqsadga qaratilgan o'garish bo'lib, qo'llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o'tkazish, uni tubdan takomillashtirishni innovatsion jarayon yangilikni yaratish, o'zgartirish, qo'llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi.

Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. Bu g‘oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya-ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchi*dan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchi*dan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To‘rtinchi*dan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi. O‘quv-tarbiya jarayonida

pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo'lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u q'oyalar maydonida ham va alohida bir sub'ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
2. F.Zakirova va boshq.Elektron o'quv-metodik majmualar vat a'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'lkanna, T.: OO'MTV, 2010. – 57b.
3. Karimova S, Xudoyberdiyeva L Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari nomli ilmiy texnik anjuman . Jizzax 2019
4. Гулбаев, Я. И., Исомиддинов, Ж. Қ. Ў., & Дадоева, М. С. Қ. (2020). СИНТЕЗ СЕМИКОРБАЗОНА ПАРАОКСИБЕНЗОАЛЬДЕГИДА С МОЛИБДЕНОМ. Science and Education, 1(9).
5. Исомиддинов, Ж., & Нурмонов, С. (2020). БЕНЗОТРИАЗОЛНИ ГОМОГЕН СИСТЕМАДА КАТАЛИТИК ВИНИЛЛАШ. *Журнал естественных наук*, (1).

6. Гулбаев, Я. И., Исамиддинов, Ж. К., & Нореков, У. Д. (2021). СИНТЕЗ И ЭЛЕМЕНТНОГО АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ТИОСЕМИКАРБАЗОНА МЕТИЛЭТИЛКЕТОНА С МОЛИБДЕНОМ. *Science and Education*, 2(1).
7. Гулбоев, Я. И., & Исомиддинов, Ж. (2020). ЎСИМЛИКЛАРНИ ХИМОЯ ҚИЛИШДА КИМЁВИЙ ТАДБИРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Журнал естественных наук*, (1).
8. Парманов, А. Б., Нурмонов, С. Э., Тиркашева, С. И., & Исомиддинов, Ж. Қ. 2-ХЛОРО-4, 6-ДИМЕТОКСИ-1, 3, 5-ТРИАЗИН ИШТИРОКИДА АДИПИН КИСЛОТАНИНГ ДИВИНИЛ ЭФИРИ СИНТЕЗИ. *КИМЁНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ*, 22.
9. Каримова, С. Б., & Муллажонова, З. С. Қ. (2021). БЕНЗОТРИАЗОЛНИ ГОМОГЕН СИСТЕМАДА АЦЕТИЛЕН ГАЗИ АСОСИДА КАТАЛИТИК ВИНИЛЛАШ РЕАКЦИЯСИНИ ЎРГАНИШ. *Science and Education*, 2(1).
10. The Physicochemical and Textural Characteristics of Catalysts in the Catalytic Aromatization Reaction of Propane- Butane Fractions. N.I. Fayzullaev\*., S.Yu. Bobomurodova., L.M. Kurbanova., A.Yu. Buronov. *International Journal of Control and Automation* Vol. 13, No. 4, (2020), pp. 888 – 896.
11. Каримова Ф., Муллажонова З. (2020). Саноат чиқиндиларини қурилиш маҳсулотлари ишлаб чиқаришга жалб этишининг самарадорлиги. *Science and Education*, 1(2).
12. Исакулова М. Ш. и др. Компьютерное моделирование пассивации частных дефектов нанокластера кремния //Молодой ученый. – 2015. – №. 13. – С. 119-121.
13. Muradova, D. (2020). <https://jspi.uz/ru/ilmiy-jurnal/>ТАБИИЙ МАНБАЛАР АСОСИДА АЦЕТИЛЕН СПИРТЛАР ВА НИТРИЛЛАР СИНТЕЗИНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Rashidova, K. (2020). ISSN раками: 2181-6131 КИМЁ ФАНИНИ УКИТИШДА КУЛЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ УСЛУБЛАР. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
15. Muradova, D. (2020). УДК 378. 174 АТРОФ-МУНИТНИНГ ИФЛОСЛАНИШИ, УНИНГ ТУРЛАРИ ВА ЭКОЛОГИК ХАВФХАТАРМАВЗУСИНИ О’ҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИНИНГ ҚО’ЛЛАНИЛИШИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
16. Muradova, D. (2020). УДК 378. 174 ТАБИИЙ ФАНЛАРНИ О’ҚИТИШДА INNOVATION PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALAR. *Архив Научных Публикаций JSPI*.